O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QAROR

2024 - yil 30 - yanvar 26-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 30 dekabrdagi “Toshkent tumani hududida ayrim yer maydonlarini davlat zaxirasiga qaytarish to‘g‘risida”gi 653-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 30 dekabrdagi “Toshkent tumani hududida ayrim yer maydonlarini davlat zaxirasiga qaytarish to‘g‘risida”gi 653-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 45-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 10, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 30 dekabrdagi “Toshkent tumani hududida ayrim yer maydonlarini davlat zaxirasiga qaytarish to‘g‘risida”gi** 653-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani G‘ishtko‘prik agro agrofirmasi massividagi 197q, 198q, 200q-konturlarda joylashgan 1,81 gektar yer maydoni davlat zaxira yerlari tarkibiga qaytarilsin. Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydoni, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi tuman filiali (O.Xoldorov) davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov, Kadastr agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi (R.Payziyev) bilan birgalikda davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydonini “G‘ishtko‘prik” chegara bojxona postini kengaytirish hamda rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish uchun belgialngan tartibda ajratish choralarini ko‘rishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**